

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №1 (32)



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №1 (32)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas‘ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay‘ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., –f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d., professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
---	---

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Abduraxmonov Muxiddin Shamsievich	O'ZBEKISTONNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIGA A'ZOLIGINING TARIXIY EVOLYUSIYASI VA IJTIMOY-FALSAFIY-MAFKURAVIY TAHLILI	9-19
Andirjanova Gulnar Abylxairovna, Ivashov Arslan Amanbayevich	QOZOG'ISTON JAMIYATI IDENTIKLIGINI SAQLASH ZAMONAVIY GLOBAL TAHDIDLARGA JAVOB SIFATIDA	20-32
Usmonov Saidikromxo'ja Saidaliyevich	KIBERXAVFSIZLIK GLOBALIZATSIYA DAVRIDA MILLIY SUVERENITETNI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA	33-47

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Aminjonov Qurbon Habibullaevich	INTERNET KOMMUNIKATSIYALARI YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY FENOMENI SIFATIDA	48-60
Berdikulova Gulsarvinoz Aslamovna	IJTIMOY TARAQQIYOTDA DISKURS VA MA'NO TRANSFORMATSIYASINING KOMMUNIKATIV MEXANIZMLARI	61-71
Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li	ONG VA TIL MUNOSABATINING GERMENEVTIK VA ANALITIK FALSAFA NUQTAI NAZARIDAN TAHLILI	72-81

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Po'latov Anvar Akmalovich	POSTMODERNIZM PARADIGMASIDA BORLIQ KONSEPSIYASINING TALQINI VA UNING AHAMIYATI	82-91
Xaydarova Zebiniso	THE EVOLUTION OF THE CATEGORY OF TRUTH IN CLASSICAL, MODERN, AND POSTMODERN PHILOSOPHY AND THE TENDENCIES OF RELATIVISM IN GLOBAL CONSCIOUSNESS	92-102

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Dr. Yetunde Abolaji Akinnawo, Dr. Amos Ayodele Okeowo	IK'YHE ZAMONAVIY XRISTIANLIKDA QUDRAT TIMSOLI SIFATIDA	103-115
Shakenov Dias Pavlovich	POSTNORMAL JAMIYATDA EKOLOGIK MADANIYAT VA EKOLOGIK QADRIYATLAR TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI	116-126

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI
ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ И ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ
HISTORY OF PHILOSOPHY AND PHILOSOPHY OF HISTORY

UDK: 111.85:141.78

 10.5281/zenodo.20181932

Po'latov Anvar Akmalovich

doktorant,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

(Toshkent, O'zbekiston)

Po'latoffanvar@gmail.com

**POSTMODERNIZM PARADIGMASIDA BORLIQ KONSEPSIYASINING
TALQINI VA UNING AHAMIYATI**

Annotatsiya. Postmodernizm falsafiy tafakkur tarixida borliq (бытие) haqidagi an'anaviy qarashlarni qayta talqin qilgan intellektual yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Unda borliq yaxlit, barqaror va universal haqiqat sifatida emas, balki ko'p qatlamli, o'zgaruvchan va interpretativ mazmunga ega diskursiv voqelik sifatida tushuniladi. Postmodernistik paradigmasida ma'no, haqiqat va reallik markazdan chetlashgan holda, turli matnlar, belgilar va ijtimoiy diskurslar orqali shakllanadi. Shu ma'noda borliq statik emas, balki doimiy interpretatsiya jarayonida yangilanib turuvchi fenomen sifatida talqin qilinadi. Biroq mazkur yondashuv bir qator muammolarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, borliq haqidagi qat'iy ontologik asoslarning yo'qolishi, nisbiylikning haddan tashqari kuchayishi, haqiqat mezonlarining zaiflashishi hamda ma'no parchalanishi kabi holatlar ilmiy va falsafiy tahlillarda konseptual noaniqlikni kuchaytiradi. Shuningdek, reallikni faqat diskurs orqali anglash tendensiyasi ob'ektiv borliq va ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni murakkablashtiradi. Shu bois ushbu maqolada postmodernizm paradigmasida borliq konsepsiyasining talqini, uning falsafiy-metodologik xususiyatlari hamda zamonaviy ijtimoiy-ilmiy tafakkurdagi ahamiyatini kompleks tarzda ochib berishga harakat qilingan.

Tayanch so'zlar: postmodernizm, borliq, ontologiya, diskurs, interpretatsiya, nisbiylik, ma'no.

KIRISH

Borliq haqidagi tasavvur insoniyat falsafiy tafakkurining eng qadimiy va markaziy muammolaridan biri bo'lib, u turli tarixiy davrlarda turlicha yondashuvlar asosida talqin qilib kelingan. Antik davr falsafasida borliq yaxlit, abadiy va o'zgarmas mohiyat sifatida qaralgan bo'lsa, o'rta asrlar tafakkurida u ilohiy iroda bilan bog'liq metafizik asosda tushuntirilgan. Yangi davr falsafasida esa borliq ratsional ong, sub'ekt-ob'ekt munosabatlari va ilmiy bilish tamoyillari orqali izohlandi. Shu tariqa borliq kategoriyasi tarixiy rivojlanish jarayonida

murakkab transformatsiyani boshdan kechirdi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab falsafada postmodernizm paradigmasi shakllanib, u an'anaviy ontologik qarashlarga nisbatan tanqidiy pozitsiyani egalladi. Postmodernistik yondashuvda borliq statik va universal haqiqat sifatida emas, balki ko'p ma'noli, kontekstual va diskursiv shaklda namoyon bo'ladigan voqelik sifatida talqin qilinadi. Bu yerda markaziy tamoyillardan biri sifatida dekonstruksiya, plyuralizm, intertekstuallik va ma'noning doimiy o'zgaruvchanligi kabi g'oyalar muhim o'rin tutadi. Falsafiy mohiyat jihatidan postmodernizm borliqni anglashda sub'ektning markaziy o'rnini qayta ko'rib chiqadi va ob'ektiv haqiqat tushunchasini shubha ostiga oladi. Bu esa borliqni faqat ratsional tizim emas, balki til, belgilar va madaniy kodlar orqali shakllanuvchi murakkab konstruksiya sifatida tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv borliq va haqiqatning nisbiyligi masalasini keskinlashtirib, falsafiy bahs-munozaralar doirasini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, postmodernizm paradigmasida borliq konsepsiyasining tahlili uning tarixiy evolyusiyasi, falsafiy asoslari va zamonaviy ijtimoiy-ilmiy tafakkurdagi o'rnini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Postmodernizm ontologiyasi klassik ontologiya va modernizm ontologiyasi negizida shakllangan borliq haqidagi noan'anaviy g'oyalar sifatida falsafiy tafakkurda muhim burilish nuqtasini ifodalaydi. Unda borliqning yaxlit, barqaror va universal asosga ega ekanligi haqidagi an'anaviy tasavvurlar qayta ko'rib chiqiladi hamda reallik ko'p qatlamli, o'zgaruvchan va interpretativ jarayon sifatida talqin etiladi. Bu g'oyalarni anglashda J. Derrida, M. Fuko, J. Bodriyyar, J.-F. Liotar va J. Delyozning qarashlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning asarlarida borliq faqat moddiy yoki metafizik asos sifatida emas, balki til, belgilar, diskurs va ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadigan dinamik jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Derrida borliq va ma'noning markazsizlashuvi haqida fikr yuritib, har qanday ma'no doimiy kechikuvchi va o'zgaruvchan belgilar tizimida vujudga kelishini asoslagan [Derrida, 1967]. Fuko esa borliqni bilim va hokimiyat o'zaro bog'liqligi orqali shakllanadigan diskursiv maydon sifatida tushuntirgan [Fuko M, 1975]. Bodriyyar zamonaviy jamiyatda reallikning simulyakrlar tizimiga aylanib, giperreallik holati yuzaga kelishini asoslagan [Bodriyar J, 1981]. Liotar metanarativlarning inqirozi orqali umumiy haqiqat haqidagi tasavvurlarning parchalanishini ochib bergan [Liotar 1979]. Delyoz esa borliqni rizoma tamoyili asosida ierarxik bo'lmagan, ko'p yo'nalishli aloqalar tizimi sifatida talqin qilgan [Delez , 1980]. Raqamli sivilizatsiya sharoitida ushbu g'oyalar yangi falsafiy mazmun kasb etadi. Virtual muhit, kiberborliq va raqamli reallik inson tajribasini yangi shaklga olib chiqib, borliqni moddiy asosdan axborot va simulyativ tizimlarga o'tkazadi. Shu tariqa reallikning o'zi emas, balki uning raqamli ifodasi va simulyatsiyasi ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu esa postmodernistik ontologiyadagi nisbiylik, belgilar orqali qurilish va markazsizlashuv tendensiyalarini yanada kuchaytiradi. Ushbu mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, germevtik, diskursiv tahlil va sistemali yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy yondashuv orqali klassik, modern va postmodern ontologiya o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Germenevtik metod matnlarning ma'no qatlamlarini ochib berishga xizmat qildi. Diskursiv tahlil orqali borliqning til, hokimiyat va bilim bilan bog'liq transformatsiyasi o'rganildi. Sistemali yondashuv esa virtual va kiberborliqni yaxlit falsafiy tizim sifatida tushunish imkonini berdi.

Raqamli sivilizatsiya sharoitida ushbu g'oyalar virtual muhit va kiberborliq fenomenlari orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Reallik axborot oqimlari, algoritmlar va simulyativ modellar orqali qayta ishlab chiqiladi, natijada moddiy borliq bilan uning raqamli ifodasi o'rtasidagi chegaralar tobora noaniqlashadi. Bu holat postmodernistik ontologiyaning asosiy tamoyillarini amalda kuchaytirib, borliqning konstruktiv va interpretativ tabiatini yanada yaqqol namoyon qiladi. Shu nuqtai nazardan metodologik jihatdan tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, germenevtik, diskursiv tahlil va sistemali yondashuv metodlari mantiqiy izchillikda qo'llanildi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali klassik, modern va postmodern ontologiya o'rtasidagi evolyusion bog'liqlik va uzilish nuqtalari aniqlashga harakat qilingan bo'lsa, germenevtik yondashuv orqali mutafakkirlar asarlaridagi ma'no qatlamlari va konseptual implikatsiyalar ochib berildi. Diskursiv tahlil borliqning til, bilim va hokimiyat tizimlari bilan bog'liq transformatsiyasini yoritishga xizmat qildi. Sistemali yondashuv esa barcha qarashlarni yagona konseptual maydonda birlashtirib, virtual va kiberborliqni yaxlit falsafiy model sifatida tushunish imkonini berdi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Postmodernizm ontologiyasi XX asr falsafasida shakllangan eng muhim intellektual burilishlardan biri bo'lib, u borliq haqidagi an'anaviy tasavvurlarni qayta ko'rib chiqish asosida vujudga kelgan. Uning mohiyatini tushunishda tarixiylik tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi, chunki postmodernistik ontologiya o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas, balki klassik metafizika va modernizm falsafasining ichki ziddiyatlari natijasida shakllangan. Tarixiy jihatdan qaraganda, antik falsafada borliq Parmenid va Platon an'anasida o'zgarmas, abadiy va universal mohiyat sifatida tushunilgan. O'rta asrlar falsafasida esa borliq ilohiy iroda bilan bog'langan metafizik tizim sifatida talqin etilgan. Yangi davr falsafasida Dekart, Kant va Gegel qarashlarida borliq ong, aql va dialektik rivojlanish orqali izohlanib, ratsional markazlashuv kuchaygan. Biroq XX asrga kelib bu tizimlar o'z ichki cheklovlariga duch keldi va borliq haqidagi universal haqiqat g'oyasi shubha ostiga olindi. Shu nuqtai nazardan postmodernizm ontologiyasi klassik metafizikaning "yaxlit borliq" g'oyasiga va modernizmning "ratsional subekt markaziyli" tamoyiliga tanqidiy munosabat sifatida shakllandi. Unda borliq barqaror struktura emas, balki ma'no, til va diskurs orqali doimiy qayta quriladigan interpretativ jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Germenevtik metodologiya bu yerda alohida ahamiyatga ega bo'lib, u borliqni "berilgan haqiqat" emas, balki talqin qilish jarayonida ochiladigan ma'nolar majmuasi sifatida tushunish imkonini beradi. Xaydegger va Gadamer an'anasida ma'no doimiy ravishda kontekst ichida shakllanadi, shu sababli borliq ham faqat

tushunish jarayonida namoyon boʻladi. Postmodernizm ushbu germevntik gʻoyani radikallashtirib, har qanday maʼnoning barqaror emasligi va koʻp interpretatsiyali tabiatini taʼkidlaydi [Gadamer, 1960]. Postmodernizm ontologiyasi klassik va modernistik ontologiyalardan tubdan farq qiladi. Klassik ontologiyada borliq obʼektiv va mustaqil reallik sifatida mavjud boʻlsa, modernizm u ratsional ong orqali anglanadigan struktura sifatida koʻrilgan. Postmodernizm esa borliq diskursiv, belgilar tizimi orqali shakllanadigan, markazsiz va koʻp qatlamli fenomenga aylanadi. Bu jihatdan u Derridaning dekonstruksiyasi, Fukoning diskurs nazariyasi va Bodriyyarning simulyakr konsepsiyasi bilan uzviy bogʻliq [Derrida, 1967]. Falsafiy mohiyat jihatidan postmodernizm ontologiyasi borliqni qatʼiy asosdan mahrum qilib, uni doimiy interpretatsiya jarayoni sifatida qayta anglash imkonini beradi. Bu esa falsafada “yagona haqiqat” oʻrniga koʻplik, nisbiylik va kontekstuallik tamoyillarini ustuvor qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv zamonaviy raqamli sivilizatsiya sharoitida virtual va kiberborliq tushunchalarining paydo boʻlishiga nazariy asos yaratadi. Postmodernizm ontologiyasining falsafiy asoslari tarixiy evolyusiya, germevntik talqin va kiesiy tahlil metodlari orqali chuqurroq anglanadi hamda u zamonaviy borliq haqidagi tasavvurlarni tubdan oʻzgartiruvchi nazariy paradigma sifatida namoyon boʻladi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, postmodernizm ontologiyasida borliqning dekonstruktiv talqini eng radikal yondashuvlardan biri hisoblanadi, chunki u borliq haqidagi anʼanaviy falsafiy ishonchlarni barqaror mohiyat, markaziy haqiqat va universal maʼno mavjudligi gʻoyasini tubdan qayta koʻrib chiqadi. Dekonstruksiyada borliq “berilgan haqiqat” sifatida emas, balki doimiy ochilayotgan va bir vaqtning oʻzida yoʻqolib borayotgan maʼnolar toʻri sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan borliqning oʻzi qatʼiy struktura emas, balki til va belgilar harakati orqali shakllanadigan dinamik jarayondir. J. Derrida fikriga koʻra, har qanday maʼno markazga ega emas, u doimiy ravishda boshqa belgilarga ishora qilish orqali kechiktiriladi. Bu holat “diffirensiatsiya” tamoyilida ifodalanib, maʼnoning doimiy siljishi va toʻliq anglanmasligini koʻrsatadi [Derrida, 1967]. Borliq ham aniq chegaralangan reallik emas, balki belgilar oʻyini orqali namoyon boʻladigan interpretativ maydonga aylanadi. Bu yondashuvda muhim jihat shundaki, dekonstruksiya faqat matnni tahlil qilish usuli emas, balki borliqning oʻziga nisbatan qoʻllaniladigan ontologik pozitsiyadir. Yaʼni, reallik matn kabi oʻqiladi, u doimiy qayta yoziladi, qayta talqin qilinadi va har bir interpretatsiya uning avvalgi shaklini buzadi. Shu sababli postmodernistik ontologiyada barqaror “asos” oʻrniga uzluksiz “siljish” va “aylanish” tamoyili ustuvor boʻladi. Germevntik nuqtai nazar bilan qiyoslanadigan boʻlsa, klassik germevntika (Gadamer anʼanasi) maʼnoni tushunish orqali bir oz barqarorlashtirishga intiladi, yaʼni talqin jarayonida maʼno ochiladi va nisbatan yaxlit shaklga ega boʻladi. Dekonstruksiya esa aynan shu barqarorlik imkoniyatini rad etadi va har qanday tushunishni yangi talqinlar zanjiriga olib kiruvchi jarayon sifatida koʻradi. Shu jihatdan u germevntikani kengaytirib, bir vaqtning oʻzida uni shubha ostiga ham oladi. Madomiki shunday ekan, klassik ontologiya borliqni obʼektiv va oʻz-oʻzidan

mavjud reallik sifatida tushuntirsa, modernizm uni aql orqali anglanadigan struktura sifatida ko‘radi.

Dekonstruktiv yondashuv esa bu ikki modelni ham tanqid qilib, borliqni “yakunlangan tizim” emas, balki ochiq interpretatsiyalar maydoni sifatida talqin qiladi. Bu holatda haqiqatning yagona shakli emas, balki ko‘plab, bir-biriga zid va o‘zaro kirishuvchi ma’nolar mavjud bo‘ladi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida dekonstruktiv ontologiya yanada dolzarblashadi, chunki virtual muhitda reallik qat’iy moddiy asosdan uzilib, doimiy o‘zgaruvchi vizual va axborot konstruksiyalariga aylanadi. Internet, media va algoritmlar orqali yaratilgan reallik doimiy qayta quriladigan struktura sifatida namoyon bo‘lib, dekonstruksiyaning “barqaror asos yo‘q” degan g‘oyasini amalda tasdiqlaydi. Shu tariqa borliqning o‘zi interpretatsiya, simulyatsiya va diskursiv qayta qurilish jarayoniga aylanadi. Shuning uchun dekonstruktiv talqin postmodernizm ontologiyasining falsafiy asosini tashkil etib, borliqni statik mohiyat emas, balki doimiy ma’no harakati sifatida anglash imkonini beradi. Postmodernistik ontologiyada borliqni tushinishda eng muhim burilish nuqtalaridan biri uning bilim va hokimiyat munosabatlari orqali shakllanishi haqidagi g‘oyadir. Bu yondashuvga ko‘ra, borliq mustaqil, ob’ektiv reallik emas, balki muayyan tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda shakllanadigan diskursiv konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni inson nimani “haqiqat”, “reallik” yoki “borliq” deb qabul qilishi bilim tizimlari va hokimiyat mexanizmlari orqali belgilanadi [Fuko, 1975]. M. Fukoning “arxeologiya” va “genealogiya” usullari orqali borliq tarixiy diskurslar qatlamlari orqali qurilishini ko‘rsatadi. Uning fikricha, jamiyatdagi har bir “haqiqat rejimi” muayyan institutlar (ta’lim, tibbiyot, huquq, siyosat) orqali ishlab chiqiladi va nazorat qilinadi. Shu orqali borliq “berilgan haqiqat” emas, balki “ishlab chiqarilgan haqiqat” sifatida namoyon bo‘ladi [Foucault, 1977]. Bu g‘oyani kengaytirgan holda P. Burdyo ham simvolik hokimiyat tushunchasi orqali ijtimoiy reallikning shakllanishida madaniy kapital va ijtimoiy maydonlarning roli muhim ekanini ko‘rsatadi. Uning fikricha, borliqni anglash tarzi ham ijtimoiy pozitsiyalar va kapital taqsimoti bilan chambarchas bog‘liq [Bourdieu, 1991]. Shu orqali borliq faqat falsafiy kategoriya emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida qayta ishlab chiqiladigan strukturaga aylanadi. J. Bodriyyar esa bu jarayonni yanada radikallashtirib, zamonaviy jamiyatda borliq simulyakrlar va belgilar aylanmasiga kirib qolganini ta’kidlaydi. Uning giperreallik konsepsiyasiga ko‘ra, reallik va uning ifodasi o‘rtasidagi chegara yo‘qoladi va inson simulyatsiyani haqiqat sifatida qabul qila boshlaydi [Baudrillard, 1981]. Bu holatda diskurs faqat ma’no ishlab chiqarish emas, balki reallikning o‘ziga aylanadi. Shu bilan birga, Yu. Xabermas postmodernistik yondashuvlarni tanqid qilib, diskurs faqat hokimiyat instrumenti emas, balki ratsional kommunikatsiya maydoni ham bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning kommunikativ ratsionallik nazariyasida haqiqat kelishuv (consensus) orqali shakllanadi [Habermas, 1984]. Bu yondashuv postmodernistik nisbiylikka muqobil pozitsiya sifatida ko‘riladi. Demak klassik ontologiya borliqni tashqi, ob’ektiv reallik sifatida tushuntirsa, modernizm uni ratsional sub’ekt orqali anglanadigan struktura sifatida ko‘radi. Postmodernizm esa borliq diskurs,

hokimiyat va bilim o'zaro bog'liq tizimda shakllanadigan dinamik jarayonga aylanadi. Shu jihatdan u nafaqat ontologik, balki epistemologik burilishni ham ifodalaydi. Zamonaviy raqamli sivilizatsiya sharoitida bu yondashuv yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmlar orqali shakllanayotgan axborot muhitida haqiqat va fikr o'rtasidagi chegaralar yanada noaniqlashadi.

Diskursiv borliq raqamli platformalar orqali qayta ishlab chiqiladi va boshqariladi, bu esa Fuko ta'riflagan "bilim–hokimiyat" birligini yangi texnologik bosqichga olib chiqadi [Castells, 2010]. Postmodernizm ontologiyasida borliqni diskursiv tushunish faqat nazariy model emas, balki zamonaviy ijtimoiy reallikni anglashning muhim metodologik asosiga aylanadi. Postmodernizm ontologiyasida borliq masalasi asta-sekin moddiy va barqaror asosga ega bo'lgan klassik tushunchadan chiqib, ko'p qatlamli, parchalangan va interpretativ struktura sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvda borliqning "yagona haqiqati" emas, balki uning turli diskurslar, matnlar va kommunikatsion maydonlar orqali yaratilishi asosiy o'rin tutadi. Ayniqsa, raqamli sivilizatsiya sharoitida bu tendensiya yangi bosqichga ko'tarilib, virtual va kiberborliq tushunchalarini shakllantiradi. Jan Bodriyyarning simulyakr va simulyatsiya nazariyasiga ko'ra, zamonaviy jamiyatda reallik o'rnini uning belgilar tizimi egallaydi va bu holat "giperreallik" fenomeniga olib keladi [Bodriyyar, 1981]. Ushbu qarash raqamli muhitda borliqning reallikdan uzilib, axborot oqimlari orqali qayta ishlab chiqilishini anglatadi. Natijada, inson tajribasi "asl voqelik" bilan emas, balki uning mediativ modellari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, Manuel Kastelsning "tarmoq jamiyati" konsepsiyasi raqamli kommunikatsiyalarning ijtimoiy ontologiyani qayta shakllantirishini ko'rsatadi [Kastels, 2000]. Uning fikricha, borliq endilikda markazlashmagan tarmoqlar orqali ifodalanadi va bu holat kibermakonda ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltiradi. Bu jarayonda insonning ontologik mavqei ham o'zgarib, u bir vaqtning o'zida ham sub'ekt, ham raqamli ma'lumot birligi sifatida namoyon bo'ladi. Delyoz va Gvattari tomonidan ilgari surilgan "rizoma" konsepsiyasi ham raqamli borliqning tarmoqsimon tabiatini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [Deleuze, Guattari, 1980]. Rizoma modeli ierarxik tuzilmalarni inkor etadi va ko'p yo'nalishli, ochiq va dinamik strukturani taklif qiladi. Internet va raqamli platforma muhiti aynan shu rizomatik ontologiyaning amaliy ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Martin Haydeggerning texnika haqidagi tahlilida esa zamonaviy texnika borliqni "resurs" sifatida namoyon qiladigan "enfreyming" (Gestell) sifatida tushuniladi [Heidegger, 1977]. Raqamli sivilizatsiya sharoitida ushbu yondashuv yanada dolzarb bo'lib, inson, ma'lumot va hatto madaniy ma'nolar ham algoritmik tizimlar orqali qayta tashkil etiladi. Bu holat borliqning texnik-axborotli qayta kodlashuvini anglatadi. Mishel Fukoning diskurs nazariyasi esa raqamli muhitda hokimiyat va bilim munosabatlarining yangi shakllarini ochib beradi [Foucault, 1972]. Onlayn platformalarda diskurslar algoritmlar orqali boshqarilishi natijasida borliq haqidagi tasavvur ham institutsional va texnologik nazorat ostida shakllanadi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida borliqning virtuallashuvi va kiberontologik o'zgarishlari

postmodernistik ontologiyaning markaziy masalalaridan biriga aylanadi. Borliq endi statik reallik emas, balki simulyatsiya, tarmoq, algoritim va diskurslar orqali doimiy qayta yaratiladigan dinamik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Postmodernizm ontologiyasida borliq masalasi yagona, universal va o'zgarmas mohiyat sifatida emas, balki ko'p qatlamli, nisbiy va doimiy interpretatsiyaga ochiq tizim sifatida tushuniladi. Bu yondashuvda borliqning ma'nosi statik emas, balki til, diskurs, madaniy kodlar va ijtimoiy praktikalar orqali shakllanadigan dinamik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan postmodernizm ontologiyasida plyuralizm asosiy tamoyil sifatida maydonga chiqadi. Jan-Fransua Liotar "metanarativlar inqirozi" g'oyasi orqali zamonaviy jamiyatda umumiy tushuntiruvchi katta nazariyalarning ishonchini yo'qotganini ta'kidlaydi [Lyotard, 1979]. Bu holat borliq haqida yagona haqiqat emas, balki ko'plab lokal haqiqatlar mavjudligini ko'rsatadi. Demak, borliq ma'nosi turli diskurslar o'rtasidagi raqobat va muloqot orqali shakllanadi. Jak Derrida dekonstruksiya metodi orqali matn va ma'noning doimiy kechikishi (différance) g'oyasini ilgari suradi [Derrida, 1967]. Bu yondashuvga ko'ra, borliq ma'nosi to'liq va yakuniy shaklda berilmaydi, balki doimo ochiq va qayta talqin qilinadigan jarayon sifatida mavjud bo'ladi. Shuning uchun postmodernizm ontologiyasida "borliq" tushunchasi markazlashgan ma'nodan mahrum bo'lib, ko'p markazli tizimga aylanadi. Richard Rorti pragmatik yondashuv orqali haqiqatni ob'ektiv reallikning aks etishi emas, balki til va ijtimoiy kelishuvlar natijasi sifatida talqin qiladi [Rorty, 1989]. Bu holat borliqni ham intersub'ektiv kelishuvlar orqali yaratiladigan ma'nolar majmuasi sifatida tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, Jan Bodriyarning simulyatsiya nazariyasida borliq va uning tasviri o'rtasidagi chegara yo'qolib, simulyakrlar reallikning o'rnini egallaydi [Baudrillard, 1981]. Bu holat postmodern sharoitda borliqning "asllik" mezonidan ajralib, belgilar tizimiga aylanishini ko'rsatadi. Zamonaviy raqamli muhitda bu nazariy qarashlar yanada kuchayadi, chunki internet, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik tizimlar orqali borliq ko'plab virtual versiyalarda namoyon bo'ladi. Bu esa ontologik plyuralizmni real ijtimoiy va madaniy amaliyotga aylantiradi. Shunday qilib, postmodernizm ontologiyasida borliqning ma'nosi yagona markazdan emas, balki ko'plab diskursiv maydonlar, til o'yinlari va simulyativ strukturalar orqali shakllanadi. Bu esa zamonaviy falsafiy tafakkurda nisbiylik, ochiqlik va ko'pqirralilik tamoyillarini kuchaytiradi.

XULOSA

Postmodernizm ontologiyasida borliq konsepsiyasi klassik va modernistik falsafadagi barqaror, universal va ob'ektiv reallik haqidagi tasavvurlardan tubdan farq qiladi. Unda borliq tayyor, mustaqil mavjudlik sifatida emas, balki til, diskurs, madaniy kodlar va ijtimoiy kommunikatsiyalar orqali doimiy yaratiladigan va qayta talqin qilinadigan jarayon sifatida tushuniladi. Shu jihatdan, postmodernizm ontologiyasida borliqning ma'nosi ko'pqirrali, nisbiy va interpretatsiyaga ochiq xususiyatga ega bo'lib, yagona haqiqat emas, balki turli "lokal haqiqatlar" majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvda J.F.Liotarning metanarativlar inqirozi g'oyasi, J. Derrida dekonstruksiyasi, J. Bodriyarning

simulyakr va giperreallik konsepsiyasi hamda R. Rortining pragmatik haqiqat talqini muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Bu g'oyalar borliq haqidagi yagona, markazlashgan va universal izohlarning yo'qolishini, ma'noning doimiy kechikishi va qayta qurilishini asoslab beradi. Shuningdek, raqamli sivilizatsiya sharoitida M. Kastelsning tarmoq jamiyati konsepsiyasi asosida borliqning virtuallashuvi va kiberborliq shakllanishi yanada kuchayadi. Zamonaviy axborot va raqamli muhitda inson borliqni bevosita emas, balki mediativ, simulyativ va algoritmik tizimlar orqali idrok etadi. Bu holat borliqning ontologik tabiatini o'zgartirib, uni dinamik, tarmoqlangan va ko'p qatlamli strukturaga aylantiradi. Natijada, reallik va virtuallik o'rtasidagi chegaralar siyqalanib, inson tajribasi simulyativ maydon ichida shakllanadi. Shu bilan birga, postmodernistik yondashuv inson sub'ektligining ham o'zgarishini namoyon etadi, ya'ni inson barqaror markaziy sub'ekt emas, balki turli diskurslar, raqamli muhitlar va ijtimoiy tarmoqlar ichida shakllanadigan ko'p qirrali identiklik sifatida namoyon bo'ladi. Demak, postmodernizm ontologiyasi borliqni faqat falsafiy kategoriya sifatida emas, balki zamonaviy sivilizatsion, madaniy va texnologik o'zgarishlarni anglashga xizmat qiluvchi umumiy metodologik yondashuv sifatida talqin qiladi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Деррида, Ж. (2000.) О грамматологии. -Москва: Ad Marginem,
2. Гадамер, Х.-Г. (1960) Истина и метод. -Москва: Прогресс, 1988.
3. Фуко, М. (1975) Надзирать и наказывать.- Москва: Ad Marginem, 1999.
4. Бодрийяр, Ж. (1981) Симулякры и симуляция. -Москва: Постум, 2015.
5. Лиотар, Ж.-Ф. (1979) Состояние постмодерна. -Санкт-Петербург: Алетейя, 1998.
6. Делёз, Ж., Гваттари, Ф. (1980) Тысяча плато. -Москва: Ad Marginem, 2010.
7. Фуко, М. (1975) Надзирать и наказывать. -Москва: Ad Marginem, 1999.
8. Фуко, М. (1977) Археология знания. -Санкт-Петербург: Наука, 2004.
9. Бурдьё, П. (1991) Практический смысл. -Москва: Институт экспериментальной социологии, 2001.
10. Хабермас, Ю. (1984) Теория коммуникативного действия. -Москва: Весь Мир, 2000.
11. Кастельс, М. (2010) Информационная эпоха: экономика, общество и культура.- Москва: ГУ ВШЭ, 2017
12. Heidegger, (1977) The Question Concerning Technology and Other Essays.- New York, Harper & Row, 1977, p. 3–35.
13. Deleuze, G., Guattari, F. (1980) Mille Plateaux.- Paris, Minuit, 1980, p. 10–45.
13. Castells, M. (2000) The Rise of the Network Society. -Oxford, Blackwell, 2000, p. 1–64.

14. Lyotard, J.-F. (1979) La condition postmoderne. -Paris, Éditions de Minuit, 1979, 109 p.
15. Rorty, R. (1989) Contingency, Irony, and Solidarity. -Cambridge, Cambridge University Press, 1989, 201 p.

Anvar Akmalovich Po'latov

Doctoral Researcher

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
(Tashkent, Uzbekistan)

Po'latoffanvar@gmail.com

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF BEING IN THE PARADIGM OF POSTMODERNISM AND ITS SIGNIFICANCE

Abstract. Postmodernism, in the history of philosophical thought, emerges as an intellectual movement that reinterprets traditional views on being. Within this framework, being is not understood as a unified, stable, and universal reality, but rather as a multilayered, dynamic, and interpretative discursive phenomenon. In the postmodern paradigm, meaning, truth, and reality are decentered and are constructed through various texts, signs, and social discourses. In this sense, being is not static, but is interpreted as a phenomenon that is continuously renewed through ongoing processes of interpretation. However, this approach also gives rise to a number of problems. In particular, the loss of firm ontological foundations, the excessive intensification of relativism, the weakening of criteria of truth, and the fragmentation of meaning all contribute to conceptual ambiguity in scientific and philosophical analysis. Furthermore, the tendency to understand reality solely through discourse complicates the relationship between objective being and social practice. Therefore, this article attempts to provide a comprehensive analysis of the interpretation of the concept of being within the paradigm of postmodernism, its philosophical and methodological features, and its significance in contemporary socio-scientific thought.

Keywords: postmodernism, being, ontology, discourse, interpretation, relativism, meaning.

Пулатов Анвар Акмалович

докторант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
(Ташкент, Узбекистан)

Po'latoffanvar@gmail.com

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ БЫТИЯ В ПАРАДИГМЕ ПОСТМОДЕРНИЗМА И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. Постмодернизм в истории философской мысли выступает как интеллектуальное направление, переосмысливающее традиционные представления о бытии. В его рамках бытие понимается не как целостная, стабильная и универсальная реальность, а как многослойный, изменчивый и интерпретативный дискурсивный феномен. В постмодернистской парадигме

смысл, истина и реальность децентрируются и формируются через различные тексты, знаки и социальные дискурсы. В этом смысле бытие не является статичным, а интерпретируется как феномен, постоянно обновляющийся в процессе интерпретации. Однако данный подход порождает и ряд проблем. В частности, утрата чётких онтологических оснований, чрезмерное усиление релятивизма, ослабление критериев истины и фрагментация смысла приводят к возрастанию концептуальной неопределённости в научном и философском анализе. Кроме того, тенденция понимать реальность исключительно через дискурс усложняет взаимосвязь между объективным бытием и социальной практикой. В связи с этим в данной статье предпринята попытка комплексного раскрытия интерпретации концепции бытия в парадигме постмодернизма, её философско-методологических особенностей, а также её значения в современном социально-научном мышлении.

Ключевые слова: постмодернизм, бытие, онтология, дискурс, интерпретация, релятивизм, смысл.

